



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA BOZORINI RIVOJLANTIRISH
VA TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
BUYRUG'I**

52-son

“ 8 ” iyun 2026-yil

**“Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida
belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risida**

Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligida (keyingi o'rinlarda – Agentlik) “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish, “Zero Bureaucracy Radar” mexanizmini joriy etish va “Customer Council” — Mijozlar kengashi faoliyatini tashkil etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Agentlikning “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” dasturi doirasida 2026-yilda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi ushbu buyruqning **1-ilovasiga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Agentlikda ushbu buyruqning **2-ilovasiga** muvofiq tarkibda “Customer Council” — Mijozlar kengashi tashkil etilsin va uning vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

davlat xizmatlari va ma'muriy jarayonlardagi byurokratik to'siqlarni aniqlash;
fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining taklif va murojaatlarini o'rganish;
davlat xizmatlarini soddalashtirish va raqamlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
qabul qilingan qarorlar ijrosi yuzasidan monitoring olib borish.

3. Ts 311048337-051:2026 Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligining “Customer Council” — Mijozlar kengashi to'g'risida Nizom ushbu buyruqning **3-ilovasiga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo'limi (X. Shaxidullayev):
2026-yil 10-iyunga qadar Agentlikning chora-tadbirlar rejasini Strategik rejalashtirish va islohotlar agentligiga belgilangan tartibda taqdim etsin;

Agentlik faoliyatiga taalluqli davlat xizmatlari, ma'muriy jarayonlar va majburiy talablarni inventarizatsiyadan o'tkazishni tashkil etsin;

“Zero Bureaucracy” platformasiga ma'lumotlarni muntazam va sifatli kiritib borish yuzasidan monitoring olib borsin;

“Customer Council” yig'ilishlari jadvalini tasdiqlash uchun kiritsin.

5. Matbuot kotibi (B. Abdullayev):

Agentlikning rasmiy veb-saytida “Byurokratiyani bartaraf etish – 2030” ruknini tashkil etsin.

6. Texnik tahlil qilish, raqamlashtirish va sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi (B. Tagbayev):

Agentlikning davlat xizmatlari va ichki jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqsin;

idoralararo elektron integratsiya imkoniyatlarini o‘rganib, tegishli takliflarni kiritсин;

“Zero Bureaucracy” platformasi bilan ishlash uchun mas’ul administratorni bir hafta muddatda belgilasin.

7. Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari:

mazkur buyruqda belgilangan vazifalar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlasin;

har oy yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan Strategik rejalashtirish va axborot-tahlil bo‘limiga ma’lumot kiritib borsin.

8. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor



Sh. Xodjayev